

## O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHNI USLUBOYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

**Ibragimov Zafar Ismailovich,**

Toshkent davlat Iqtisodiyot Universiteti mustaqil izlanuvchisi

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish soliq qonunchiligi doirasida belgilangan tartib-qoidalar asosida soliqni hisob-kitob qilish uchun tizimli yondashuvni qamroab oladi. U turli jihatlarni, jumladan, soliqqa tortiladigan daromadni aniqlash, soliq majburiyatini hisoblash, soliq deklaratsiyasini topshirish va soliq qonunchiligining ijrosini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish har bir mamlakatning o'ziga xos soliq qonunchiligi va tartib-qoidalariga qarab farq qilishi mumkin.

Tarixiy jihatdan dunyoda daromad solig'i bo'yicha uslubiy yondashuvning ikki xil shakli keng qo'llaniladi:

1. Jismoniy shaxsning barcha turdagi daromadlari umumlashtirilgan holda hisoblanib, ushbu umumiy summadan soliq olinishini nazarda tutadi;

2. Jismoniy shaxsning daromadlar turlariga qarab alohida hisoblab chiqilishi va alohida soliqqa tortilishini nazarda tutadi.

Mamlakatda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi ideal tarzda shakllangan bo'lsa birinchi uslubiy yondashuv inobatga olinadi, chunki u progressivlikni, yashash darajasini, to'lovchining oilaviy ahvolini va boshqalarni aks ettirishi mumkin.

Birinchi uslubiy yondashuv 1920-yillarda Germaniya, AQSh, SSSR va boshqa ko'pchilik mamlakatlarda, ikkinchi uslubiy yondashuvdan esa Buyuk Britaniya, Italiya va qisman Fransiyada qo'llanilgan.

Ikkinchi uslubiy yondashuvga binoan, soliq to'lovchi tomonidan daromadlar qanday shaklda olingan bo'lishidan qat'i nazar, quyidagi manbalardan olingan daromadlardan undiriladi:

- 1) pul ko'rinishidagi daromadlardan;
- 2) ko'chmas mulkdan, binoni ijaraga berishdan va ko'chmas mulkka egalik qilish va undan foydalanishning boshqa har qanday turlaridan;
- 3) barcha turdagi tijorat, sanoat va boshqa daromadli korxonalaridan;
- 4) xizmat va yollanma ish uchun haq to'lashdan;
- 5) kasbiy, shaxsiy va boshqa foydali faoliyatdan;
- 6) 1-5-bandlarda ko'rsatilmagan har qanday daromad manbalaridan.

Ko'plab mamlakatlarda daromad solig'ining aholi daromadlari tengsizligiga ta'sirini baholash yuzasidan soliq islohotlari amalga oshirilgan. Aholi daromadlariga daromad solig'ining ta'sirini kamaytirish borasida asosan ikki xil empirik yondashuv keng qo'llaniladi.

**Birinchi yondashuv** rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lib vaqt o'tishi bilan daromadlarning o'zgaruvchan ekanligi inobatga olingan holda progressivlik choralari belgilanadi.

**Ikkinchi yondashuvda** rivojlanayotgan mamlakatlarga xos xatti-harakatlar amalga oshirilib, bunda aholining o'rtacha daromadlilik ko'rsatkichi va daromadlarning o'zgaruvchan koeffitsiyenti inobatga olinadi.

Xalqaro tajribada aholi daromadlari tengsizligini oshirib yubormaslik uchun tadqiqotlar natijasida yalpi daromad, sof daromad va iste'mol uchun alohida hisoblangan Jini koeffitsiyentlari inobatga olinadi.

Progressiv va proporsional soliqqa tortish o'rtasidagi bahs va munozaralar hozirda dunyoning ko'plab mamlakatlarida iqtisodchi olimlar tomonidan faol muhokama qilinayotgan dolzarb masalalardan biriga aylangan. Jamiyatdagi daromadlar tengsizlik darajasini pasaytirish va adolatli mexanizmini yo'lga qo'yish bo'yicha chora-tadbirlarning yetarli emasligi turli toifalar o'rtasidagi daromad farqini kamaytirish uchun samarali qayta taqsimlashni ta'minlash jismoniy shaxslarni soliqqa tortish uslubiyotini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Amaldagi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimidagi yagona stavkada soliq solinishi byudjet daromadlari bazasini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, lekin har xil daromad manbaiga, ayniqsa kam daromad oluvchi jismoniy shaxslarga nisbatan salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, aholi daromadlaridagi nomutanosiblik kamaytirishda samarasiz fiskal instrument hisoblanadi.

O'rtacha (samarali) daromad solig'i stavkalarining progressiv shkalasi soliq summasining soliq solinadigan bazaga xususan, jismoniy shaxsning umumiy daromadiga nisbati hisoblanadi.  $y = y(x) \in (0,1)$ ,  $x \in (0,+\infty)$  mutlaq uzluksiz funksiya sifatida modellashtiriladi, u deyarli hamma joyda bir xil ahamiyatga ega bo'lib,  $[x_-,x_+]$  oraliqda differensial tengsizliklarni qanoatlantiradi<sup>1</sup>:

$$0 < \frac{dy}{dx} < \frac{1-y}{x} \quad (1)$$

va har bir intervalda doimiylik xususiyatiga ega  $(0, x_-]$  va  $[x_+, +\infty)$ , ya'ni

$$y(x) = 0, \forall x \in (0, x_-], y(x) = y_+, \forall x \in [x_+, +\infty) \quad (2), (3)$$

Bu yerda,  $x$  – jismoniy shaxslarning umumiy daromadi,  $x_-$  – soliqqa tortilmaydigan minimal daromad,  $x_+$  – daromadning chegaraviy darajasi, qaysiki maksimal o'rtacha stavkada soliq undiriladi. Modelda  $y \in (0,1)$ ,  $x \in (0,1)$  sohasida differensial tengsizliklar sistemasining barcha mutloq uzluksiz echimlari to'plami (1) differensial tenglamalarning parametrik oilasi yechimlari to'plamiga mos keladi<sup>2</sup>:

$$\frac{dy}{dx} = \frac{1-y}{x} \quad (4)$$

<sup>1</sup> Смирнов Р.О. Моделирование выбора параметров шкалы подоходного налога. Вестник Санкт-Петербургского университета. экономика. №4, 2011. С.142.

<sup>2</sup> Филиппов А. Ф. Дифференциальные уравнения с разрывной правой частью. <https://djvu.online/file/7hQGulky6n61K>

Lebeg funksiyasi bo'yicha barcha mumkin bo'lgan o'lehovlarga mos keladi:

$$u = y(x) \in (0,1) \quad (5)$$

Soliqlarning eng muhim funksiyalaridan biri fiskal funksiya bo'lganligi sababli, daromad solig'i shkalasini tanlashning optimallik mezoni davlat byudjetiga soliq tushumlarining umumiy hajmini tavsiflovchi funksiyalarni maksimal darajada oshirish muammosi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra,  $[x_0, x_+]$  intervali o'rta sinfnining daromadlari diapazonini belgilaydi. Bunday holatda  $[x_-, x_0]$  yarim intervali past daromadli jismoniy shaxslarning daromadlari diapazonini,  $[x_+, +\infty]$  intervali esa aholi boy qatlami daromadlari diapazonini ko'rsatadi. O'rta sinfnining daromadlari chegaralarini yashash minimumiga mutanosib ravishda tanlash eng oqilona ko'rinadi, bu aholi turmush darajasini aniqlashdagi tadqiqot markazlarining yondashuviga mos keladi<sup>3</sup>. O'zbekistonda daromad solig'ini hisoblashda o'rta guruhdagi aholi daromadining quyi chegarasi bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravar miqdoridagi yashash minimumi va eng yuqori chegarasi sifatida esa 20 baravar miqdordiga yashash minimumi miqdoridagi summa, ya'ni  $x_- = 5x_-, x_+ = 20x_-$ .

Shunday qilib, daromad solig'i stavkalarining progressiv shkalasi parametrlarining eksperimental hisob-kitoblarini o'tkazishda diapazon chegaralarining quyidagi qiymatlari hisobga olingan.

$$a_0 = x_-, a_1 = x_0, = 5x_-, a_2 = 10x_-, a_3 = 15x_-, a_4 = x_+ = 20x_-.$$

Ishlab chiqilgan uslubiyotga muvofiq ushbu parametrlarni quyidagicha tanlash taklif etiladi. Soliq solinmaydigan eng kam daromad x-jahon soliq amaliyotiga mos keladigan yashash minimumiga teng bo'lishi taklif qilingan. Progressiv soliq soliq to'lovchining umumiy yillik daromadiga solinganligi sababli, oylik minimal 12 oyga ko'paytirilib olingan.

Taqdim etilgan hisob-kitoblar o'rganilayotgan yondashuvning imkoniyatlarini ko'rsatishga mo'ljallangan. O'rtacha daromad solig'i stavkalarining optimal shkalasi parametrlarini o'zgartirganda, marjinal soliq stavkalari shkalasining hisoblangan parametrlari ham o'zgarishi aniq. Yana bir marotaba ta'kidlab o'tamizki, progressiv stavkada soliq solishda shkalaning oxirgi diapazonidagi 20 % ga teng stavkada mazkur diapazondagi jismoniy shaxsning umumiy daromadi soliqqa tortiladi (1-jadval).

1-jadval

**Progressiv daromad solig'i shkalasi<sup>4</sup> (BHM 412 000 so'm).**

Diapazon chegaralari, $a_i$ so'm	Soliq stavkasi $\eta_i$ %
$0 < x \leq 4\,944\,000$	0
$4\,944\,000 < x \leq 15\,252\,000$	2
$15\,252\,000 < x \leq 76\,260\,000$	10

<sup>3</sup> Неравенство доходов и экономический рост: стратегии выхода из кризиса. Под редакцией Бузгалин А., Трауб-Мерц Р., Воейков М.. М: Культурная революция, 2014. – 406 с.

<sup>4</sup> Hisob-kitoblar asosida kelgusi davr uchun tavsiya sifatida dissertant tomonidan ishlab chiqilgan.

$76\,260\,000 < x \leq 152\,520\,000$	16
$152\,520\,000 < x \leq 228\,780\,000$	20
$x > 228\,780\,000$	16


Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan barcha soliqlarga nisbatan progressiv soliq shkalasi belgilanishi zarur, chunki ushbu diapazonlarning chegaralari fiskal va qayta taqsimlashdagi samarali soliq stavkalarini o'rnatilishida muhim ahamiyat kasb etadi. 1-jadval orqali taklif etilayotgan progressiv soliq stavkalari kamroq daromad oluvchi shaxslarni qisman bo'lsada rag'batlantirish, ko'proq daromad oluvchi shaxslarni ko'proq soliqqa tortish ya'ni adolatlilikni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Bunda soliq solinmaydigan daromad (0 % stavka) bazaviy hisoblash miqdoriga qolgan stavkalar eng kam ish haqi miqdoriga bog'langan. Chunki yillar davomida mazkur ko'rsatkichlar o'zgarishi mumkin. Bu borada alohida ta'kidlash lozimki, yil davomida daromad solig'ining hisob-kitoblarini amalga oshirishda chalkashliklar va anglashilmovchiliklarning oldini olish uchun yil boshidagi eng kam ishhaqi va bazaviy hisoblash miqdori inobatga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillar asosida olingan natijalaridan kelib chiqib shuni ta'kidlab o'tish joizki, ma'lum bir soliqlarning fiskal "samaradorligi" turli omillar ta'sirida tegishli davrlar mobaynidan turli darajada bo'lishi tabiiy holat hisoblanib, bunga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: soliq stavkalari va soliq solishning boshqa elementlarini o'zgartirish hamda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishidagi holati (o'sish, turg'unlik yoki pasayish). Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish, xususan, daromad solig'i o'tgan davr davomida o'zining yuqori fiskal "samaradorligi"ga erishishi kerak edi. Shu bilan birga, progressiv stavkadagi daromad solig'i tizimida proporsional soliq tortishga nisbatan byudjetga daromadlar tushumi kamroq bo'lishi mumkinligi to'g'risida obyektiv dalil mavjud emas. So'nggi yillarda jismoniy shaxslar daromad solig'i tushumlaridagi o'sish dinamikasi asosan jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishdagi o'zgarishlar, ish haqi va iqtisodiyotning yuqori rivojlanish sur'atlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa daromad turlarining obyektiv o'sishi bilan bog'liqdir. Barcha rivojlangan va tez rivojlanayotgan mamlakatlarda (masalan, Xitoy), daromadlarga soliq solishda nafaqat stavkalarining progressiv shkalasi, balki soliq solinmaydigan minimal miqdori (yashash minimumidan yuqori) ham qo'llaniladi. Ko'pchilik iqtisodchi olimlarning ta'kidlashicha, iqtisodiyoti rivojlangan va yuqori daromadli rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan solishtirib ko'rilganda, aksariyat o'rta va kam daromadli davlatlarda jismoniy shaxslar daromadi strukturasi va miqdori keskin farqlanishni kuzatish mumkin. Buning sabablaridan biri sifatida balki amaldagi jismoniy shaxslar daromadini proporsional stavkada soliqqa tortish tizimidir.

Barchaga ma'lumki, soliq tizimi va jismoniy shaxslar soliqlarining samaradorligi, tushunchasini soliq tushumlari hajmi va ushbu soliqlar ma'murchiligi xarajatlari o'rtasidagi nisbatga bog'lash juda noto'g'ridir. Umuman olganda jismoniy

shaxslarni soliqqa tortish tizimi, agar aholi daromadlar tengsizligi darajasini kamaytirishga va milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga to'siq bo'lmagan holda samarali deb hisoblanishi mumkin.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarimiz Iqtisodchi olim A.A.Bozorov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish uslubiyoti bo'yicha algoritmik yondashuvlar amalga oshirildi (1-rasm)



1-rasm. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish uslubiyoti bo'yicha algoritmik yondashuvlar<sup>5</sup>

Jismoniy shaxslarni mutanosib shkalada soliqqa tortish modelini tarafdorlarining ta'kidlashicha, ushbu model iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishga imkon beradi, shu bilan birga, yuqori daromad olishga qiziqish uyg'otadi, bu esa oxir-oqibat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Jismoniy shaxslar daromadiga progressiv shkalada soliq solish modelini tarafdorlarining fikricha, jamiyatdagi aholi daromadini qayta taqsimlashda samarali va nisbatan adolatli hisoblandi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda jismoniy daromadlarni soliqqa tortishning progressiv shkalasi qo'llaniladi. G'arb mamlakatlarida asosiy soliq yuki aholining eng badavlat qatlami o'z zimmasiga oladi, bunga jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i shkalasining yuqori

marjinal stavkalari progressivligi hamda standart va turli ijtimoiy aholi guruhlariga uchun soliq solinmaydigan daromad summasi o'rnatilishidir<sup>5</sup>.

Fikrimizcha daromad solig'i stavkasining progressivligi yuqori darajada bo'lishi bir tomondan, aholi daromadlari tengsizligiga ijobiy ta'sir etishi mumkin, ammo ikkinchi tomondan aholining daromadlarini yashirish ko'rsatkichining ortib ketishiga olib kelishi mumkin. Shunday ekan aholi daromadlariga nisbatan soliq stavkalarini belgilashda mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda aholi daromadlarining yuqoriligi yoki kamligi inobatga olinishi muhim hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan va aholi daromadlari yuqori hisoblanuvchi mamlakatlarda daromad solig'ining progressivligi yuqori bo'lishi ijobiy hisoblanadi.

Yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda aholi daromadlari tengsizligini kamaytirish uchun quyidagi bir nechta tavsiyalarni ta'kidlash mumkin::

1. Progressiv soliqqa tortish: Bu yuqori daromadli shaxslar ko'proq soliq to'laydigan tizimni nazarda tutadi. Bu daromadlarni qayta taqsimlash va boylar va kambag'allar o'rtasidagi tafovutni kamaytirishga yordam beradi.

2. Soliq imtiyozlari: Daromadlar tengsizligini bartaraf etish uchun soliqqa tortilmaydigan minimumlarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday soliq siyosati kam ta'minlangan oilalarning ixtiyorida bo'ladigan daromadlarini oshirishga va ularning davlat dasturlariga bo'lgan bog'liqligini kamaytirishga yordam beradi.

3. Soliq shaffofligi: soliq shaffofligini oshirish daromadlar tengsizligini kamaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Soliq ma'lumotlarini oshkor qilishni talab qiluvchi siyosat soliq to'lashdan bo'yin tovlash va oldini olish sxemalarini aniqlashga yordam beradi. Xuddi shunday, yuqori daromadli shaxslar uchun hisobot berish talablari ularning soliqlarning adolatli ulushini to'lashiga xizmat qiladi.

---

<sup>5</sup> Баймухаметова А.С. 2021. Прогрессивное подоходное налогообложение физических лиц и расчет шкалы прогрессии на основе программного продукта. Налоги и налогообложение. № 2. [https://nbpublish.com/library\\_read\\_article.php?id=34060](https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=34060).